

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA NOVATORLIK

Jo'rayeva Surayyo Tolibjon qizi,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Yuldosheva Saodat Azizovna, ilmiy rahbar,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. Badiiy adabiyotda do'stlik, sadoqat, xiyonat tushunchalari o'lmas mavzulardan biridir. O'zbek adabiyotida "do'st" obrazi turlicha talqin qilinadi. Isajon Sultonning "Do'st" deb nomlangan hikoyasi ham shunday mavzudagi asarlardan biridir. Mazkur maqolada ushbu hikoya mazmuni tahlilga tortilgan, adibning g'oyaviy maqsadi mushohada qilingan. Asardagi "do'st" orqali ifodalangan falsafiy ma'nolar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Nasr, hikoya, obraz, "Do'st" hikoyasi, ruh, tana, Abay, "Naqliya so'zlar", yurak, aql, g'ayrat, ilm, majoz.

ISAJON SULTAN'IN HIKÂYELERINDE YENILIKÇILIK

Juraeva Surayyo Tolibjon qizi,

Özbekistan-Finlandiya Pedagoji Enstitüsü yüksek lisans öğrencisi

Yuldosheva Saodat Azizovna, bilimsel danışman,

Özbekistan-Finlandiya Pedagoji Enstitüsü Doçenti

Özet. Edebiyatta dostluk, sadakat, ihanet kavramları ölümsüz temalardan biridir. Özbek edebiyatında "dost" imgesi farklı şekillerde yorumlanır. Isajon Sultan'ın "Dost" adlı hikâyesi de bu konudaki eserlerden biridir. Bu makalede, bu hikâyenin içeriği analiz edilmiş ve yazarın ideolojik amacı tartışılmıştır. Eserdeki "arkadaş" aracılığıyla ifade edilen felsefi anlamlar hakkında düşünülmektedir.

Anahtar kelimeler. Nesir, hikaye, imge, "Dost" hikâyesi, ruh, beden, Abay, "Nakliye Sözler", kalp, akıl, gayret, ilim, mecaz

НОВАТОРСТВО В РАССКАЗАХ ИСАДЖОНА СУЛТАНА

Джураева Сурайё Толибжон кизи,

магистрант Узбекско-финского педагогического института

Юлдошева Саодат Азизовна, научный руководитель,

доцента Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В художественной литературе понятия дружбы, верности и предательства являются одними из актуальных тем. В узбекской литературе образ "друга" трактуется по-разному. Рассказ Исаджона Султана под названием «Друг» также является одним из произведений на эту тему. В данной статье анализируется содержание этого рассказа, рассматривается идейная цель писателя. В произведении рассматриваются философские значения, выраженные через «друг».

Ключевые слова. Проза, рассказ, образ, рассказ «Друг», душа, тело, Абай, пословицы, сердце, разум, энтузиазм, знание, метафора

INNOVATION IN THE STORIES OF ISAJON SULTAN

Juraeva Surayyo Tolibjon kizi,

master's student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

*Yuldosheva Saodat Azizovna, scientific supervisor,
associate professor of the Uzbek-Finnish pedagogical institute*

Abstract. *In fiction, the concepts of friendship, loyalty, and betrayal are among the immortal themes. In Uzbek literature, the image of "friend" is interpreted differently. Isajon Sultan's story "Do'st" (Friend) is one such work. In this article, the content of this story is analyzed, and the author's ideological goal is considered. The work discusses the philosophical meanings expressed through the word "friend".*

Keywords. *Prose, story, image, "Friend" story, soul, body, Abay, "Proverbs", heart, mind, zeal, knowledge, metaphor.*

Mustaqillik davri nasrida o'z yo'nalishi, qalamining o'tkirli bilan adabiyot olamida o'z o'rniga ega ijodkorlarimiz bir qancha. Jumladan, Shukur Xolmirzayev, Murod Muhammad Do'st, Ulug'bek Hamdam, Normurod Norqobilov, Luqmon Bo'rixon, Isajon Sulton singari ijodkorlarning o'ziga xos yo'nalishda yaratgan asarlari milliy adabiyotimiz taraqqiyotiga sezilarli darajada hissa qo'shmoqda. Bugungi kunda nasrda shaklga emas, ko'proq ruhiyat tasviriga alohida e'tibor berilmoqda. Badiiy asardagi obrazlarga munosabat yozuvchi tomonidan emas, balki kitobxonning o'ziga havola qilinmoqda. Bu esa nasr taraqqiyotining bir pog'onaga ko'tarilganligidan dalolat beradi. Bugungi kunning shunday ijodkorlaridan biri O'zbekiston xalq yozuvchisi, Isajon Sultondir. Uning dastlab romanlari, keying yillarda hikoyalari ham falsafiyli bilan ajralib turadi. Yozuvchi asarlarida o'ziga xos uslubni: ramziylik, falsafiylik, qat'iyatlilik kabi jihatlarni kuzatamiz. Hikoyalari ham o'yga toldiradi, ham mushohadaga undaydi. Buni "Do'st" hikoyasi misolida ko'rib o'tamiz.

Ishda Isajon Sulton ijodi va turkiy xalqlarda do'stlik obrazi haqidagi ilmiy ishlar tahlil qilindi. Unda qiyosiy-chog'ishtirma, tarixiy-tipologik metodlardan foydalanildi.

Majoz turli janrlarda, ayniqsa, masal, rivoyat, hikoya, qissa ba'zan roman shaklida ham uchraydi. Adabiyotimizda Muhammad Sharif Gulxaniy "Zarbulmasal" [10] asari o'zbek adabiyotida majoziy xarakterda yaratilgan bo'lsa, jahon adabiyotida XX-asrda yozilgan Jorj Oruellning "Molxona" [5] romani esa fikrimizning dalilidir. Ham nasrda, ham nazmda keng qo'llanib kelinayotgan majoziy obraz tasviridan yozuvchi Isajon Sulton ham ustalik bilan foydalangan.

O'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham o'lmas mavzulardan biri bo'lgan do'stlik mavzusini turlicha talqin etuvchi asarlar bir qancha. Masalan, Xalq og'zaki ijodidan, "Alpomish" dostonida Alpomish va Qorajonning do'stliga; [7; 10-bet] ertaklarda, "Egrivoy va To'g'rivoy"ning munosabatlari keltirilgan bo'lsa, [3; 56-bet], XX-asrda yozilgan O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida ham do'stlarning munosabatlari yoritib berilgan [4; 19-bet]. "Alpomish" dostonida Qorajon sadoqatli do'st desak, "Egrivoy va To'g'rivoyda" bunung aksini ko'ramiz. XX asrda yashab ijod etgan shoirimiz Erkin Vohidovning mashhur she'ri "Do'st bilan obod uying, gar bo'lsa u vayrona ham, Do'st qadam qo'ymas esa Vayronadir koshona ham" - degan satrlarida inson yashar ekan, unga har doim bir do'stning kerakligi haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Bugungi kun nasrda Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romani [6]. Yoshlikdan birga o'sgan ikki do'stning hayot muammolari ikki xil insonga aylantirgani, konfliktlar ichida do'stlikka darz ketishi, orzularini orzuligicha qolib ketganligi, davrning muammolari ko'rsatilgan. Bir qarashda Isajon Sultonning ham hikoyasida xuddi shunday muammolar keltirilgan deb o'ylaysiz. Chunki hikoyaning boshlanishidagi badiiy tasvirlar kitobxonni shunday o'ylashga majbur qiladi.

Senu men tengdosh edik, do'st.

O'tloqlarda o'ynar edik. O'shanda... rosa chopar edik-da. Oyog'imiz ostida quyun o'ralashardi. Qirda shamoldan o'zib ketardik. To'kilgan o'rik gullari chopishimizdan paydo bo'lgan shiddatlarda yerdan ko'tarilib, uchib - uchib yana yerga qayta qo'nardi.

Dunyo biz uchun mana shu kichkina makondan iborat edi, xolos.

Bir qarashda bolalikdan birga katta bo'lgan ikki do'stning xotiralariga o'xshaydi. Ammo bu ikki do'stning o'zaro suhbatlari emas, buni hikoyani chuqur mushohada qilibgina anglash mumkin.

Do'stlik mavzusiga Isajon Sulton mutlaqo yangicha tus bergan. Ijodkorimiz ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarni emas, tana bilan ruhni o'zaro suhbatlashtirgan. Bu hikoyaning falsafiyligidan dalolat beradi. Adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiyning "Lison ut tayr" yoki "Farxod va Shirin" asarlarida falsafiylik yorqin ko'zga tashlanadi [1; 25 bet]. Farxodning ismini kelib chiqishi, yo uning o'rgangan ilmlari komillik sari qadamlari edi.

Qardosh xalqlardan qozoq shoiri Abayning ham ijodida shu yo'nalishdagi asarlari bor. "Naqliya so'zlar" deb nomlanadi [12]. Asar nasihat shaklida yozilgan bo'lib, qisqa fikrlar aytilgan, xulosalar keltirilgan. "Naqliya so'zlar"ning O'n yettinchi so'z bo'limida G'ayrat, Aql, Yurak - har uchasi, o'zini maqtab tortishib qoladi. Ilmning oldiga kelib hakamlilik qilishini so'raydi va ilm uchasi birikishini aytadi. Agar birika olmasangiz men yurakni yoqlayman, chunki insonlar qalbini toza saqlashlari lozim, deb xulosa beradi. Ushbu asar nasihatlar shaklida yaratilgan bo'lib, inson xususiyatlari orqali kishilarni birlikka undaydi. Isajon Sultonda esa yangicha talqin Hikoyani ramziy ma'noda "Do'st" deb nomlaydi, sababi hikoyani boshidan to so'nggi satrigacha ruhning tanaga murojaati shaklida yozilgan. Go'yo bolalik yillariga ikki do'stning qaytishi deb o'ylashga majbur qiladi. Hikoyadagi mana bu monologga diqqat qarataylik.

Ikkalamizning o'z hududlarimiz boriydi, bepoyon, sirlarga to'la, jozibali hududlar. Apil-tapil bir burda nonni chaynab, ariqdan bir hovuch suv ichib ketaverardik-da.

"Ikkalamizning" so'zidan ko'rinib turibdi. Gap ikki kishi haqida ketayotganligi. Shuning uchun ham do'stlarning suhbatini eslatadi-da.

Ko'zlari chaqnab, kulib-kulib turadigan yoqimtoy bola eding-da, do'st. Har doim men bilan birga ekaningdan, seni qachon taniganimni eslolmayman.

Ushbu ta'rifdan so'ng asar nima uchun do'st deb atalganligiga oriqcha izoh qolmaydi. Hikoyaning davomiga diqqat qaratsak.

Ikkalamizning ham ismimiz bir xil edi. Otam yoki onam ismimizni aytib chaqirsa, baravariga yugurib borardik. Men xayollarga, o'y - fikrlarga beriluvchanroq edim, har narsaning tubiga yetgim kelaverardi. Sening tevarakka qiziqishing zo'r edi, orom beradigan narsalarni yaxshi ko'rading.

Bu monolog o'quvchini chalg'itadi. Ismlarining birligini aytib turib qiziqishlarini farqlaydi. Bu bilan bir xil ismdagi ikki o'rtog'mi deb o'ylab qolasiz. Hikoyaning mana bunday davomi esa, bu so'zlarning ruhga tegishli ekanligini anglatadi.

Yana, uyquni yaxshi ko'rading. Men esa uxlashni yoqtirmasdim. Shu sabab, goho sen uxlagan mahallaring xayolan qaylarga dir sayrlar qilardim. U - makonsiz, zamonsiz hududlar edi. O'sha hududlarda goho dunyodan o'tib ketgan bobomni, o'zim tanimaydigan kimlardir uchratar edim. Gohida esa... uchar edim, do'st! Shunda seni ko'rmas edim, nainki seni, o'zimni ham ko'rmas edim. Go'yo eshituvchi va ko'ruvchi jisimsiz bir shaffof narsa edimu makonlar va zamonlar uzra uchib ketardim.

Demak, hikoya do'stlik haqida emas, tana va ruh haqida ekanligiga aniqlik kiritib oldik. Ho'sh, ijodkor nega bunday yondashdi. Hikoyaning davomiga e'tibor qaratamiz.

Sening umring juda oz qoldi-juda yaqin orada seni tuproqqa topshiradilar. Sen tuproqlarning ostida qolasan, do'st. Men esa ketaman o'z yuksakliklarimga - u yerlarda sening keraging bo'lmaydi menga. Endi sen bilmagan bir sirni ochayin. Men azal edim. Sen bilan tanishmasimdan minglab yillar avval bino bo'lgan edim. Ya'ni ikkimiz ikki yondan dunyoga keldik, bir-birimizni tanidik. Sen ham meni taniding va amringa itoatkorona bo'yin egding! Ikkovlon bir vujud ichra mavjud bo'ldik, do'st.

Yuqorida ham ta'kidlab o'tganimizdek, ijtimoiy hayotdagi do'stlik munosabatlari haqida hikoyaning biror yerda tilga olinmagan. Hikoyani shartli ravishta "Do'st" deb atab, jisim va jonni qancha yillar birlikda yonma-yon, go'yo yelkadoshdek ta'riflagan. Jisimni ruh tark etar chog'ida unga o'rganib qolganligi, ammo ketish hayot qonuni ekanligini ko'rsatib o'tmoqchidek. Ijodkor barchamiz Oллоhga tegishli ekanligimizni, Yaratganning oldiga bir kun qaytguvchi yo'lovchilar

ekanligimizni ta'kidlamoqda. Barchamiz tuproqdan yaralganmiz tuproqqa qaytamiz. Bu haqda dinimizning muqaddas kitobi bo'lmish "Qur'on" da ham shunday yozilgan [2;457-bet]. Eslang, Robbingiz farishtalarga degan edi: "*Albatta men loydan bashar yaratuvchidirman*". (71-oyat sod surasi) "*Men uni to'g'ri qilib yaratganimda va unga ruhimdan puflaganimda, siz unga sajda qilinglar!*", (72-oyat sod surasi). Bas, Olloh bizni loydan yaratib farishtalarni sajda qildirgan bo'lsa, nega biz doim Ollohn yodimizda saqlamaymiz. Olayotgan har nafasimiz uchun shukronalar keltirmaymiz. Farzandlarimizga Yaratganni tanitish uchun vaqt sarf etmaymiz. Aslida, har onimiz Ollohniki emasmi? Isajon Sultonning hikoyasida meni nazdimda, aynan shunday g'oya yashirilgan. Rivojlanib borayotgan XXI asrda aslida adabiyotimizga aynan shunday asarlar kerak deb o'ylayman. Chunki barchamizga tegishli bo'lgan tanamiz loydan yaralgan va unga Ollohnning jon ato etganligini yodimizda saqlashimiz kerak. Barchamizga tegishli bo'lgan omonatgina umrda, vaqtni ezgu amallarga sarflashimiz lozimligini hikoyani o'qib yana bir marta amin bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, D.Quronov ta'kidlaganidek, hikoyada "Emotsional va rotsional birliklarning o'rni kattadir" [8]. Rotsional birlik dunyoni bilish deb olsak, u orqali yozuvchi bugungi kunda insonlar dunyoni qanchalik bilyapti? Ularlarning go'zal yashashlari uchun berilgan bunday imkoniyatlardan qay yo'sinda foydalanyapti? Kitobxonni o'ylashga, mushohadaga undaydi. Agar insonlar, Yaratganni doim yodida tutganlarida edi, urushning azobidan onalar yig'lamas, go'daklar olamdan o'tmas edi. Agar odamlar Yaratganni doim yodida saqlasalar, bugungidek isrofgarchilik, yovuzlik, o'g'rilik, noshukrlik degan shaytoniy istaklarga qul bo'lmas edilar. Isajon Sulton hikoyani noan'anaviy usulda yaratgan, bugungi kun uchun aynan kerak bo'lgan mavzulardan biri deb o'ylayman. Zero, insonlarning diniy va dunyoviy bilimlarini oshirishda ijodkorlar va ularning yaratgan asarlarini o'rni beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2006. 25-bet.
2. Buriyeva, F., & Narzulloyeva, P. (2024). Muhammad Ali she'riyatida tarixning poetik talqini. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(12), 164-167.
3. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsifi. – Toshkent: "Munir", 2023. 457-bet.
4. "Egrivoy bilan To'g'rivoy" ertagi. – Toshkent: "Azmir nashr print", 2023. 56-bet.
5. Azizovna Y.S. Study of folktale in literature and its relation to the epic genre. *Central European Management Journal* 31 (No. 03 (2023)), 476-482
https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7250/19705/65b7e8e0c2065_Yuldosheva%20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf
6. Azizovna Y.S. [On the Development of Expressive Learning Skills](https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/4444). *International Journal on Integrated Education (IJIE)* 6 (No. 5 (2023)), 313-316
<https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/4444>
7. Hoshimov O'tkir. Dunyoning ishlari. Qissa. – Toshkent: "Ilm-ziyo-zakovat", 2019. 19-bet.
8. Oruell Jorj. Molxona. Roman. – Toshkent: "Nihol". 2023.
9. Murod Muhammad Do'st. Lolazor. Roman. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2021.

Internet saytlari:

10. Alpomish. Doston. <http://staff.tiame.uz>
11. Quronov D. "Adabiyotshunoslikka kirish". www.ziyouz.com
12. Isajon Sulton "Do'st" hikoyasi. <https://uzsrmt.ru/kutubxona/asarlar/1433-do%CA%BBst-hikoya-isajon-sulton.html>
13. "Zarbulmasal". <https://library.tsdi.uz>
14. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostoni. <https://arxiv.uz>
15. <https://kh-davron.uz>